

YANGI O'ZBEKISTONDA TA'LIM TIZIMIDA TA'LIM VA TARBIYA BERISHNING METODOLOGIK ASOSLARI

Raximova Mashkura Inamjanovna

*A.Navoiy nomidagi o'zbek tili va adabiyot universiteti "ijtimoiy-gumanitar" fanlar
kafedrası katta o'qituvchisi*

KIRISH. Jahonda modernizasiyalashuv ta'lim va ilmiy makonga integrasiyalashish, ta'lim va fan mutanosibliği hamda jahonda oliy ta'lim tizimlarining tubdan o'zgarishi kabi muammolarni keltirib chiqarmoqda. Jumladan, butun dunyoda ta'lim modernizasiyasi, ta'lim strategiyasi, global ta'lim makonini shakllantirish va baynalmilallashtirish, ta'lim siyosati, ta'lim eksporti, ommaviy ta'lim, virtual ta'lim kabi ustuvor yo'nalishlarda islohotlar amalga oshirish bilan bir qatorda oliy ta'lim tizimi modernizasiyalashuvining ijtimoiy-falsafiy jihatları ham dolzarb ahamiyatga ega bo'lmoqda. Faylasuf, sosiolog, psixolog, pedagog olimlar tomonidan oliy ta'lim tizimini modernizasiyalashtirish, ta'lim sub'ektlarining dunyoqarashi va tafakkur tarzini zamonaviy talablarga moslashishi, davlat tomonidan ta'lim tizimining barcha bosqichları, xususan, oliy ta'limga e'tibor qaratilishi va xususiy sektorga imkoniyatlarning kengaytirilishi, oliy ta'limning jamiyat hayotiga ta'sirini tadqiq etish e'tibor qaratilmoqda. Zamonaviy ijtimoiy-gumanitar bilimlar tizimida ta'lim modernizasiyasi mintaqaviy va milliy madaniyatlar integrasiyasi hamda halqlar mental xususiyatlarını alohida o'rganish zaruriyatiga oid tadqiqotlarga ehtiyoj paydo bo'lmoqda.

O'zbekistonda olib borilayotgan oliy ta'lim tizimidagi islohotlarning huquqiy bazasi yildan - yilga mustahkamlanib bormoqda. Turli sohalar uchun mutaxassislar tayyorlash bo'yicha oliy o'quv yurtlarining ish sifatini baholashga tupli konseptual va amaliy yondashuvlar qo'llanilayotgani bejis emas. Ular orasida oliy ta'lim tizimini modernizasiyalashda samapali va umumiy yondashuvlapni alohida qayd etish mumkin. «Zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish, chinakam ma'rifat va yuksak madaniyat egasi

bo'lish uzluksiz hayotiy ehtiyojga aylanishi kerak». Bu borada mamlakatimizda jamiyat va oliy ta'lim modernizatsiyasi, mamlakatni demokratiyalashtirish, etuk mutaxassislariga bo'lgan bo'shliqni to'ldirish masalalari muhim ahamiyat kasb etmoqda. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadlaridan biri yuqori va sifatli kasbiy kompetentlikka ega mutaxassislarni tayyorlashdir. Shu bois so'nggi yillarda uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlarida pedagog kadrlarni kasbiy kompetentlik sifatlariga egaligini aniqlash va baholashga e'tibor qaratilib, bu yo'lda amaliy harakatlar olib borilmoqda. Shuni ta'kidlash joizki, oliy ta'lim muassasalarida pedagog kadrlarni mutaxassis sifatida shakllanishida ilmiy, ijtimoiy, madaniy va axloqiy mezonlar davr talabida yaratilgan. Aynan oliy ta'lim muassasasining pedagogi zamonaviy raqobat sharoitida yuqori malakali mutaxassisni shakllantirishga bevosita javobgardir. Kelajak taraqqiyoti nafaqat iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va huquqiy omillarga, shu bilan birga madaniy-ma'naviy sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlarga ham bog'liqdir.

Ta'lim tizimidagi o'quv jarayonining sifati ko'plab omillarga bog'liq bo'lib, ular orasida ta'lim berish metodlari hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ta'lim berish jarayonida talabalarga mustaqil ilm olish va ijodiy muxitni yaratish, ularni shaxs sifatida rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Usul va metod tushunchalari o'zaro bog'liqdir, chunki ularning har biri muxim ahamiyatga ega bo'lgan vazifalarni bajaradi. Ta'lim metodlari: tushuncha, funksiya, tasniflash kabi vazifalarni bajaradi. «Metod» so'zining yunoncha tarjimasida «tadqiqot, usul, maqsadga erishish yo'li» kabi ma'nolarni anglatadi. Falsafiy lug'atlarda ushbu tushuncha umumiy tarzda «maqsadga erishish usullari» deya sharhlangan.

Pedagogika amaliyotida o'qitish usullari va metodlarining ko'plab ma'lumotlari to'plangan. Ularni to'g'ri tanlashda turli sharoitlar, o'qitilayotgan fanning xarakteri, bolalarning yosh xususiyatlari, oldingi tayyorgarlik darajasi va hokozolar hisobga olinadi.

Yurtimizda ta'lim tizimida pedagogik maxoratlarni shakllantirishning ijtimoiy – falsafiy va tarixiy asoslari mavjud. Hozirgi kunda zamonaviy pedagog talablarini

bajarishning zaruratlaridan biri kasbga aloqador, tarixan boy an'analarni o'zlashtirishdir. Asrlar mobaynida yurtimiz buyuk ustoz va olimlarni yetishtirish bilan mashxur bo'lib kelgan. Ana shundan ustozlardan biri Abu Nasr Forobiy hisoblanadi. Unga "Muallim assoniy" nomi berilishi tasodifiy jarayon emas. Forobiyning bizga qoldirgan ilmiy merosi sharqda pedagogika ilmini shakllanishida eng muhim ahamiyatga ega bo'ldi.

Forobiyning fan va san'atning afzalligi haqidagi risolasida o'quv jarayonini tashkil etish va o'qitish metodlarini qo'yiladigan talablar ifodalangan. Olim o'zining o'qitish metodlari haqidagi tushunchalarida talabalarga turli bilimlarni berish bilan birga, mustaqil holda bilim olish omillarini ham ko'rsatib o'tib, bunday turdagi bilimlarning zarurligiga shak-shubhasiz ishonirish kerakligini uqtirgan.

Sharq qomusiy olimlarining asarlarini tahlil qilish, hozirgi terminologiyadan foydalanib, mazkur asarlar mualliflarini prinsiplari va o'qitish metodlari bilishning umumiy qonunlariga muvofiqligini aniqash imkonini beradi. Barcha qomusiy olimlar foydalangan o'qitish metodlarini bir necha guruhga ajratish mumkin. Bular: ko'rgazmali tajriba metodlari (Ibn Sino), bilimlarni bayon qilishning savol-javobli yo'llari (Abu Rayhon Beruniy, al-Xorazmiy), ko'nikma va malakalarni shakllantirish metodlari, bilimlarni tekshirish metodlari (Forobiy, al-Xorazmiy) va hokazolardan iboratdir. Shunisi diqqatga sazovorki, mazkur olimlarning barchasi talabalar faoliyatini kuchaytirish va ularda mantiqiy tafakkurni rivojlantirish maqsadini ko'zlagandir.

Burxoniddin Zarnudjiyning fikricha, insonni bilish faoliyati bilmaslikdan bilishga qarab boradi deb ta'kidlaydi. Aql - faol, ijodiy kuchdir, koinotni o'rgatuvchi bilimlar esa insonni qurollantiradi. Ammo bilish dastlab tajribadan ustun bo'lishi mumkin emas. Chunki umuminsoniy aql tushunchasi taqqoslash, kuzatish va tajriba omildan tashkil topadi. Ushbu fikrlar pedagogika inson hissiy idrokini boyitishi bilangina o'zining bilimlarini oshira oladi degan xulosani chiqarish mumkin. Shuning uchun ta'limda talabalarning o'zidagi tajribaga tayangan metodlardan iloji boricha keng foydalanish kerak.

Shaxsni har tomonlama rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya tizimini nazariy metodologik jihatdan qurollantirish-bugungi kunda pedagogika fanining bosh maqsadi sifatida belgilangan. Yuqorida bayon etilgan yuksak, ammo, sharaflil vazifalarni muvaffaqiyatli uddalash har bir pedagogik xodimdan yuksak kasbiy mahorat kasbiy malaka, bilimdonlik va keng dunyoqarashni talab etadi. Bularning barchasiga esa kasbiy kompetentlik natijasida erishiladi. Kompetentlik tushunchasi haqida so'z yuritishdan oldin, uning mazmun va mohiyati bilan tanishib chiqish lozim. Pedagogik kompetentlik fan sohasiga kompetensiya tushunchasi negizida kelib chiqqan. Kompetensiya tushunchasi esa, psixologik izlanishlar natijasida psixologiya fanida qo'llanila boshlandi. "Kompetensiya" deganda (lotincha compete- erishaman, muvofiqman, mos kelaman) kishi egallagan muayyan bilim, ko'nikma, malakalar majmui tushuniladi. Kompetensiya, shuningdek, muayyan vazifani bajarish uchun biror shaxs yoki tashkilotga berilgan vakolat va huquq ma'nosida ham qo'llaniladi. Mazmunan, u yoki bu sohadagi bilimlar, qadriyatlar, tajriba va shaxsiy dunyoqarashlar majmuasidir. Va shaxsning individual qobiliyati hamdir. Kompetentlik va kompetensiya so'zlari bir-biri bilan bog'liq va biri ikkinchisini taqozo etadigan tushunchalar sanaladi. Shunga ko'ra kasbiy kompetensiya o'zida bir qator kompetentlik va kompetensiyalarni mujassamlashtiradi. Zero, yetarli darajada kasbiy kompetensiyasi rivojlanmagan va keng doiradagi kompetensiyaga ega bo'lmagan mutaxassis o'z lavozim vazifalarini muvaffaqiyatli bajara olmaydi. Kompetentli deb muayyan bir sohaga oid ma'lumotga ega bo'lgan va shu sohaga xos kompetensiyalarni egallagan kishiga aytiladi.

Metodlar va usullar pedagog tomonidan darsda hal qilishi mo'ljallangan masalalardan kelib chiqib tanlanadi. Chunonchi, yangi manbani bayon etishda bir xil metodlar qo'llansa, uni mustahkamlashda ikkinchi va mavzuni umumlashtirishda yana boshqa xil metodlar qo'llanadi. Darsni bir bosqichdan ikkinchi bosqichiga o'tishda mantiqiy fikrlash va amaliy qo'llash metodlardan foydalanish muhimdir. Pedagog darsning boshida savol javobni amalga oshiradi va talabalarni mavzu yuzasidan umumiy

bilimlarini aniqlab, guruhning diqqat-e'tiborini yangi mavzudagi dolzarb muammolar va ularning yechimiga qaratadi. Dastlab savollarga batafsil javob bera oladigan talabalardan so'raydi. Natijada guruxning bir qismi uchun murakkablik qilgan material tushunarli bo'ladi. Bu usul talabalarning mashg'ulotlardagi kamchiliklarini payqash va shu zaxoti bartaraf etishda yordam beradi. Mazkur usulning samaradorligi ham xuddi ana shundadir.

ADABIYOTLAR

1. Musurmonova O. Yuqori sinf o'quvchilari ma'naviy madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari: Pedagogika fanlari doktori. ...diss. – T., 1993. -364 b.
2. Xustav A. Rol innovatsii v razvitii obrazovaniya i nauki. – M., 2004.
3. Azizxodjayeva N.N. Pedagogik texnologiya va mahorat. – T., 2003.
4. Yo'ldoshev J.G'. Pedagogik texnologiyalar. – T., 2000
5. Mamurov B.B., Davronov I.E. Pedagogik kompetentlik. Buxoro.: "Durdona" nashriyoti.- 2021.- 231 b.
6. Muslimov N.A. Bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarini kasbiy shakllantirish: Monografiya-T., 2006.-357 b.